

# Organik olam filogenezining umumiyy tavsifi



- Organik olam filogenezi yoki filogeniya (yunoncha «phulon»— avlod, «genesis» – rivojlanish) organizmlarning tarixiy rivojlanishi degan ma’noni anglatadi.




- Organik olam filogenezi organizmlarning individual rivojlanishi ontogenez bilan aloqadorlikda o'r ganiladi. Ontogenez (yunoncha «ontos» – shaxsiy, individual, «genesis» – rivojlanish) deyilganda ko'p hujayrali organizmlarning zigotadan to umrining oxirigacha bo'lgan davr tushuniladi.




- Biologik progress quyidagi belgilar bilan ko'zga tashlanadi: turga mansub individlar o'z avlodlariga nisbatan yashovchanligi yuqori darajada bo'lishi hisobiga ularning soni ortadi, individlar soni ortishiga bog'liq holda mazkur individlar egallagan areal kengayadi, yangi populatsiya, ular zaminida kenja turlar, turlar va boshqa sistematik guruhlar paydo bo'ladi.



- **Arogenez** (yunoncha – «airo» yuksalish, «genesis» – rivojlanish) organizmlarning tuzilishida yirik o'zgarishlar – aromorfozlarning vujudga kelishi bilan bog'liq evolutsion yo'naliш sanaladi.



- Aromorfoz (yunoncha – «airo» – yuksalish, «morpha» – shakl, namuna) yashash uchun kurashda ancha afzalliklar yaratadi va tirik organizmlarni yangi muhit sharoitida keng arealda yashashga moslanishiga zamin tayyorlaydi.
- Organik olamning paydo bo‘lishi va rivojlanishining dastlabki bosqichlarida uchta yirik aromorfoz yuzaga kelgan.



- *Fotosintez jarayonini amalga oshiradigan organizmlarning vujudga kelishi.* Yerdagi eng dastlabki tirik organizmlar geterotrof organizmlar bo'lib, atmosferada kislorod bo'lmasligi sababli ulardagi hayotiy jarayonlar anaerob usulda sodir bo'lган.



- *Ko‘p hujayrali organizmlarning paydo bo‘lishi.*  
Evolutsiya jarayonida bir hujayrali organizmlardan ko‘p hujayrali organizmlarning paydo bo‘lishi yirik aromorfozlardan biri sanaladi. Bir hujayralilarda hayotiy jarayonlar shu hujayraning o‘zida amalga oshsa, ko‘p hujayralilarda hujayralarning ixtisoslashishi, ya’ni har bir hayotiy jarayonni amalga oshiradigan, shu bilan bir qatorda o‘zaro aloqador va uzviy bog‘langan organlar paydo bo‘lgan.



- *Jinsiy ko'payishning paydo bo'lishi.* Ma'lumki, tirik organizmlar jinssiz va jinsiy usulda ko'payadi. Jinsiy ko'payishda tuxum hujayra va spermatozoiddagi irsiy axborot yangi paydo bo'lgan zigotada mujassamlashadi, yangi avlodda irsiy o'zgaruvchanlik tufayli avvalgi organizmlarga nisbatan yangi belgilarni vujudga kelish ehtimolligi yuqori bo'ladi.



- **Allogenez –**  
(yunoncha «allos» –  
o'zgacha, boshqa,  
«genesis» –  
rivojlanish)  
organizmlarda tashqi  
muhit sharoitiga  
moslanish jarayonida  
yangi belgi-  
xususiyatlar asosida  
xususiy moslanish  
(idioadaptatsiya)ni  
vujudga keltiradigan  
evolutsion yo'naliш  
sanaladi.



- Biologik progress ba'zan organizm tuzilishining soddalashuvi hisobiga ham sodir bo'ladi. Filogenezda mazkur yo'nalish katagenez deb ataladi.



- **Katagenez** – («kata» – tuban tomonga harakat, «genesis» – rivojlanish) – organizm tuzilishini umumiy soddalashuviga – umumiy degeneratsiyaga olib keladigan evolutsion yo’nalish. Umumiy degeneratsiya, ya’ni morfofiziologik regress – organizm faol hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan organlar sistemasining soddalashuviga yoki yo’qolishiga olib keladi.



- Umumiy degeneratsiya biologik progressga yo'llovchi yo'nalish sifatida organizmlarning faol, harakatchan hayot kechirishdan passiv, kamharakat hayot kechirishga o'tishi (parazit va o'troq hayot kechirishi) bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.



- Umumiy degeneratsiya o‘z ahamiyatini yo‘qotgan organlarning tabiiy ravishda yo‘qolishiga olib keladi va shu bilan birga organizmning energiya zaxirasidan kerakli maqsadlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Umumiy degeneratsiya organizmlar tuzilishini soddalashtirsa ham, ularning serpushtligi va yashash muhitiga moslashganligi sababli ko‘p sonli bo‘lishi, arealining kengayishi, yangi sistematik guruhlarning paydo bo‘lishiga, ya’ni biologik progessga olib keladi.

